



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK  
VA TIBBIYOT INTEGRATSİYASINING  
MUAMMOLARI, YECHİMLARI HAMDA  
İSTIQBOLLARI**



**10-NOYABR  
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:  
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT  
INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI  
HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**LINGUISTICS OF DIFFERENT  
FIELDS:  
PROBLEMS, SOLUTIONS AND  
PROSPECTS OF LINGUISTICS  
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Bukhara, November 10, 2021**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:  
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ  
ЛИНГВИСТИКИ И  
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**Бухара, 10 ноября 2021 г.**

*“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.–252 b.*

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingлиз tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasи va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikating ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas’ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G‘aybullayeva N.I.**

**tibbiyt fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To‘plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas'uldirlar.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5717620>

2. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
3. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –128 б.
4. Xoziyeva M. Shaxsni tafsiflovchi so‘z birikmalari va assesment metodi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. volume 1 | issue7 issn 2181-1784 August 2021.
5. Xoziyeva M.Y., Yoqubova Sh.Y. Language and speech expression of personal descriptions.TJE –Tematics journal of Education. ISSN : 2249-9822.Vol-5-Issue-1- January-2021.

### Tibbiy matnlarda obyektlı birikmalarning voqelanishi

Yokubova Shaxnoza Yusufovna \*

10.5281/zenodo.5685487

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘z birikmalarining muayyan turi –tarkibidagi tobe a’zosi kelishik qo‘sishimchalari bilan shakllangan otlar hamda hokim a’zosi fe’l turkumiga oid so‘zlar bilan ifodalanuvchi obyektlı birikmalarning tibbiy matnlarda voqelanishi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *so‘z birikmasi, obyektlı birikma, formal sintaksis, fe’lli birikma, soha lingvistikasi, tibbiy nutq, sintaktik qolip*

Tafakkuridagi fikrlarini o‘z milliyigini aks ettira olgan ona tilida erkin bayon etish baxtini o‘zbek xalqi, mana 32 yildirki, tuyib yashamoqda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonning qabul qilinishi o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborning yuksak darajada ekanligining, ona tilimizning davlat tili maqomidagi ijtimoiy nufuzi oshayotganining nishonasidir. Bu yo‘nalishda qaror va farmonlarning qabul qilinishi ona tilimizning barcha sohalarda davlat tili sifatida keng qo‘llanishiga erishishdan iboratdir.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi tibbiyot sohasida hamda millat tilining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o‘zbek tilining lisoniy qonuniyatları asosida soha lingvistikasini, ya’ni tibbiyot va tilshunoslik to‘qnashgan nuqtada shakllangan o‘zbek tibbiy lingvistikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Formal sintaksisda so‘z birikmalarining boshqaruqli birikmalar ichida fe’l boshqaruvgiga tegishli birikmalar sifatida o‘rganilgan turi mavjud [5;6;1]. “O‘zbek tili grammatikasi”da “fe’l boshqaruvida fe’l hokim mucha vazifasida keladi, ergash mucha esa ot va otlashgan boshqa turkumdagi so‘zlardan bo‘ladi, boshqaruvo‘li bilan birikkan konstruksiyalardan tobe mucha kelishik formalarida yoki ko‘makchi olgan so‘zlar bilan birga bosh so‘zga bog‘lanib, birikmaning komponenti sifatida qo‘llanadi: kitobdan yozmoq, mashinada kelmoq, qalam bilan yozmoq, kabi misollarda harakat va obyekt munosabati ifodalangan” deb izoh beriladi [5;65]. Keltirilgan misollar “sintaktik funksiyasi e’tibori bilan obyektlı birikmalar gruppasiga kirishi kerak” deb uqtiriladi tilimiz grammatikasining akademik

\* BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi yokubovashaxnoza@gmail.com

nashrida [5;65]. Ammo tavsiflangan mazkur birikmalar “obyektli birikmalar” deb alohida nomlanmaganligi “O’zbek tili gramatikasi”da so‘z birikmalarining bu turi tasnifda alohida ajratilmaganmi yoki tasnif bu manbada to‘liq ifodasini topmaganmi, degan bahstalab mulohazalarga yo‘l ochadi.

Bunday bahstalab mulohazalarning paydo bo‘lishiga sabab, professor F.Abdullayev “kitobdan yozmoq”, “mashinada kelmoq”, “qalam bilan chizmoq” kabi so‘z birikmalarini fe’l boshqaruvida tavsiflangan bo‘lsa ham, hokim so‘zi fe’ldan bo‘lgan obyektli birikmalar” deb baholaganligidadir. Zero, olim hokim so‘zi fe’ldan bo‘lgan obyektli birikmalarning besh turini tobe so‘zning qanday shaklda kelishiga qarab, quyidagicha ajratgan:

- a) tobe so‘zi tushum kelishigida kelgan birikmalar,
- b) tobe so‘zi jo‘nalish kelishigida kelgan birikmalar,
- v) tobe so‘zi chiqish kelishigida bo‘lgan birikmalar,
- g) tobe so‘zi o‘rin kelishigida bo‘lgan birikmalar,
- d) tobe so‘zi ko‘makchilar bilan kelgan obyektli birikmalar [Abdullayev, 1978: 63].

G’.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlar tomonidan 1979-yilda nashr ettirilgan. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Sintaksis)” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida so‘z birikmalari sintaktik mazmuniga ko‘ra atributiv, relyativ, predikativ kabi tiplarga ajratilganda “obyektli” tipi ham unda alohida sanab o‘tiladi [Abdurahmonov, 1979:15]. Jumladan, shunday tavsifni ko‘rish mumkin: “So‘zlar sintaktik aloqaga kirishganda ular faqatgina formal bog‘lanib qolmay, unda biror voqelik, tushunchalar ifodalangan bo‘ladi (aniqlovchi+aniqlanmish kabi). Bundan birikma tarkibidagi komponentning sintaktik funksiyasi aniq bo‘ladi. Ana shu funksiyaga ko‘ra so‘z birikmalarining predikativ, obyektli, relyativ birikmalarga bo‘linishi kelib chiqadi” [Abdurahmonov, 1979,15].

Demak, F.Abdullayevning ilmiy risolasi va G’.Abdurahmonov, A.Sulaymonov (va boshqalar)ning o‘quv qo‘llanmasida berilgan ta’rif-u tavsiflar asosida o‘zbek tilida tobe so‘zi obyektni ifodalovchi birikmalar, ya’ni obyektli birikmalar so‘z birikmalarining muayyan turi sifatida ajratilgan.

O‘zbek tilida so‘z birikmalarining formal-funksional nuqtayi nazardan tadqiq natijalari asosida jamiyat a’zolari nutqida muayyan ehtiyoj yuzasidan tasodifiy, o‘zgaruvchan, betakror xususiyatlari bilan beixtiyor moddiylashuvchi so‘z birikmalari lisoniysintaktik qurilish qolip(LSQ)larining hosilalari ekanligi isbotlangan. Chunonchi, “O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida “bizning ongimizda, ya’ni lisonda so‘zlash, nutqni shakllantirish uchun xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi leksemalarni so‘z birikmalari sifatida bog‘lash, leksema yoki so‘z birikmalariga gap shaklini berish qoliplari bor”ligi ta’kidlangan [Ne’matov, 1999: 6]. Ushbu qo‘llanma mualliflari – H.Ne’matov, R.Sayfullayeva, M.Qurbanovaning qarashlariga ko‘ra: “Mana shu so‘z birikmalarini va gaplarni hosil qilish qoliplari lisoniysintaktik qolip (LSQ)lardir, LSQlarni modellar, konstruksiyalar, qurilmalar ham deb ataydilar” [Ne’matov,1999: 6]. Kishilar LSQlarni jamiyatdan tayyor holda qabul qilib oladilar va ularni o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartira olmaydilar, LSQlarning har biri tilimizda o‘ziga xos shakl va mazmunga egadir. O‘z navbatida shakl va mazmun istagan LSQning tashqi moddiy tomonini va ichki-mazmun, vazifa tomonini tashkil etadi. Shunisi

muhimki, LSQ ma'lum bir shakl va ma'lum bir mazmunning nomutanosib (asimmetrik) bog'lanishidan iborat bo'ladi.

Biz yuqorida LSQlar modellar, konstruksiyalar, qurilmalar deb yuritilishini qayd etgan edik. Zero, so'z birikmalarida ham muayyan qurilish tarhi, chizmasi mavjud bo'lib, ularning ma'lum guruhini birlashtiruvchi qurilma sifatida ajratilishi mumkin. Xususan, obyektlar birikmalarning tobe so'zi tushum kelishigi vositasida shakllangan bir guruhini "xatni yozmoq", "ko'ylakni tikmoq", "kitobni o'qimoq", "kattani hurmat qilmoq", "yomonni yashirmoq", "kichikni e'zozlamoq", "yaxshini qadrlamoq", "egrini tuzatmoq", "yuzni bo'lmoq", "ikkini ayirmoq", "mingni ko'zlamoq", "saksonni qoralamoq", "gumbur-gumburni eshitmoq", "jimir-jimirni ko'rmoq", "chug'ur-chug'urni tinglamoq", "sim-simni sezmoq", "birovni aldamoq", "o'zini o'yalamoq", "o'qiganni baholamoq", "izlaganni topmoq", "yashashni istamoq", "sevmoqni o'rganmoq" kabi hosilalar tashkil etadi. Bu nutqiy hosilalar sintaktik qurilishiga xos umumiylashtirishda ularni bir guruhga birlashtiradi. Boshqacha aytganda, mazkur birikmalarning tobe a'zosi ot, sifat, son, taqlid, olmosh, sifatdosh harakat nomi bilan ifodalangan bo'lsa ham, tushum kelishigi [-ni] shaklida lug'aviy asosi fe'ldan iborat hokim a'zoga birikishini namoyon etgan. Demak, berilgan obyektlar birikmalarning tobe a'zosi mavqeyida ot – [O], sifat – [S<sub>f</sub>], son – [S], taqlid – [T], olmosh – [O<sub>lm</sub>], sifatdosh – [S<sub>d</sub>] va harakat nomi – [H<sub>n</sub>] tushum kelishigi shaklida voqelashadi va hokim a'zo mavqeyidagi fe'l – [F]ga birikishning usulini belgilaydi.

Biz yuqorida obyektlar birikmalarning formal tahlil usullari asosida tushum kelishigidan tashqari jo'naliq, o'rin-payt, chiqish kelishigi ko'rsatkichlari hamda ko'makchilar vositasida shakllanadigan turlari ajratilganligini qayd etgan edik. Bu formal-logik tasnifda asos qilib olingan morfologik vosita, aslida, birikish usulini belgilovchi omil bo'lib, tobe a'zo mavqeyida jo'naliq, o'rin-payt, chiqish kelishigi va ko'makchi shaklini oladigan ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomilarning fe'llarga bog'lanishini ta'minlaydi. Demak, mazkur morfologik vositalarga xos biriktirish qobiliyati sanalgan lug'aviy asoslarning semantik birikuvchanlik qobiliyati bilan birgalikda yuzaga chiqishi sintaktik qurilishga xos asosiy xususiyat va ko'makchi shaklidagi ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomlari egallaydi. Tobe va hokim a'zolar orasidagi bunday ikki yoqlama bog'lanish semantik va morfologik valentliklar hisobiga amalga oshadi. Shunday ekan, [obyekt-harakat] ma'noli so'z birikmalarining lisoniysintaktik qurilishini umumlashtirish imkoniyati tug'iladi. Bu imkoniyat tobe a'zosi [obyekt] ma'noli ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomlaridan tuzilgan va hokim a'zosi [harakat] ma'noli fe'llarga kelishik hamda ko'makchi vositasida birikishini o'z mohiyatida mujassamlashtirgan quyidagi umumiylashtirishda sintaktik qoliplarni keltirib chiqarishga asos bo'ladi:

1.[I<sup>k.k</sup>~F]=[obyekt-harakat] SB.

2.[I<sup>ko.m</sup>~F]=[obyekt-harakat] SB.

Tibbiy nutqimizda cheklanmagan miqdorda reallashuvchi "tanani sog'lom qilmoq", "koronavirusga qarshi emlanish", "COVID-19ga chalinmoq", "insultga qarshi kurash", "koronavirusdan himoya qilmoq", "bo'g'imlarni baquvvat qilmoq", "tanani sog'lom qilmoq", "salomatlik haqida gapirmoq", "infeksiyalarga chalinmoq", "kasallikka qarshilik qilmoq", "immunitetni kuchaytirmoq", "shishni bartaraf etmoq", "yallig'lanishni qaytarmoq", "saratonidan asramoq", "parhezga

rioya qilmoq”, “ta’m bilmaslik”, “hid bilmaslik” kabi so’z birikmalari [ $I^{k.k.} \sim F$ ]=[obyekt-harakat] SB, [ $I^{ko.m.} \sim F$ ]=[obyekt-harakat] SB lisoniy sintaktik qurilish qolipi hosilalaridir.

“Selen immunitetni oshiradi”. “Ovqat hazm qilish yoki oshqozon-ichak tizimi kasalliklari barcha insonlarda uchraydi”. “Oshqozondagi bunday o’zgarishlar u yerdagi hazm jarayonini izdan chiqarib, oziq moddalarning ichaklarga o’tish muddatini uzaytiradi”. “Ispaniya pulmonologiya va torakal jarrohlik jamiyati (SEPAR) rahbari Eusebi Chiner va parhezshunos Alejandro Kanovas nafas olish organi—o’pkani koronavirusdan himoya qiluvchi mahsulotlar nomini ma’lum qildi”. “Iste’mol sodasi tomoqdagi shishni qaytarib, yallig‘lanishni bartaraf etadi”. “Muolaja vaqtida parhezga rioda qilish talab etiladi” [9]. Yuqorida keltirilgan tibbiyatlarni namunalarida [ $I^{ko.m.} \sim F$ ]= SB, [ $I^{k.k.} \sim F$ ]=SB lisoniy sintaktik qurilish qolipi mohiyatida umumlashuvchi [ $I^{b.k.} \sim F$ ]=SB, [ $I^{t.k.} \sim F$ ]=SB, [ $I^{j.k.} \sim F$ ]=SB, [ $I^{o.p.k.} \sim F$ ]=SB, [ $I^{ch.k.} \sim F$ ]=SB xususiy qoliplari hosilalari xilma-xil vazifa bajarib voqelashgan.

Tahlillardan ma’lumki, tibbiy nutqdagi so’z birikmalari lisoniy sintaktik qurilish qolipi hosilalari ekanligi va voqelangan xilma-xil so’z birikmalari til xazinasida jamlangan rang-barang leksik-morfologik imkoniyatlarni moddiylashtirar ekan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? –Т.: Фан, 1978. -75 б.
2. Абдураҳмонов F., Сулаймонов А., Холиёров X., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1979. - 208 б.
3. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол. фанлари номзоди... диссер. автореф. – Тошкент, 1997. – 21 б.
4. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
5. Нематов X., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Т.: Университет, 1999.
6. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
7. Xojiyeva M.Y. Yoqubova Sh.Y. Language and speech expression of personal descriptions .TJE - Tematics journal of Education. -ISSN : 2249-9822.Vol-5-Issue-1- January -2021.
8. Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.
9. <https://www.shifoinfo.uz/article/GKL5qZ5lv0d46L8UwmR8>
10. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
11. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o’zbek tili

#### **Тишина и тон звука как медицинский эфемизм**

**Юлдашева Дилором Нигматовна \***  
**Чуллиева Гулчехра Тошпулат кызы \*\***  
**10.5281/zenodo.5685505**

\* профессор кафедры узбекского языкоznания Бухарского государственного университета, кандидат педагогических наук [diloromxon.68@mail.ru](mailto:diloromxon.68@mail.ru)

\*\* преподаватель Бухарского государственного университета

<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	<b>104</b>
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o 'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	<b>111</b>
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	<b>116</b>
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	<b>121</b>
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	<b>125</b>
<b>2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida</b>		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar "bunyodkori"</i>	<b>131</b>
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	<b>136</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug`atlari xususida</i>	<b>139</b>
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	<b>141</b>
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	<b>146</b>
<i>To`rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	<b>150</b>
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	<b>153</b>
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>157</b>
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektlı birikmalarining vogelanishi</i>	<b>161</b>
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тишина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	<b>164</b>
<i>Navro`zova M.G.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	<b>172</b>
<b>3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbliги</b>		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazalar</i>	<b>174</b>
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқагали Мақатаев әңгімелеріндегі психологиязм Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	<b>179</b>
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	<b>182</b>
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	<b>185</b>
<i>G`aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	<b>190</b>
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiblar haqida</i>	<b>195</b>
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	<b>200</b>
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	<b>204</b>
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	<b>207</b>
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	<b>211</b>
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan "qonuni bositiy" asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarining lingvistik tahlili</i>	<b>214</b>
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning qo'llanilishi</i>	<b>218</b>
<b>4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi</b>		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	<b>222</b>